

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA TIL O'RTASIDAGI MUNOSABAT

*Termiz davlat universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti
1-bosqich 124-guruh talabasi
Abdurahmonova Sarvinoz*

Annotatsiya: Ushbu maqolada til hamda kompyuterning chambarchas aloqalari, rivojlanib borayotgan soha – mashina tarjimasi haqida so'z boradi. Shuningdek, mashina tarjimasining yutuqlari va kamchiliklari mufassil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Til, kompyuter, mashina tarjimasi, iboralar, globallashuv.

Abstract: This article discusses the close relationship between language and computers, and the emerging field of machine translation. It also discusses the advantages and disadvantages of machine translation.

Keywords: Language, computer, machine translation, idioms, globalization.

Til - xalq madaniyatining ko'zgusi, uning boshqa millatlar, xalqlar qatorida mavjud ekanining asosiy belgisi. Shuningdek, til doim harakatda, u hech qachon rivojlanishdan taraqqiyotdan to'xtamaydi. Tilning rivojlanishi uchun har bir davrda o'ziga xos omillar asosiy rol o'ynagan. Misol uchun, 13-14-asrlarda ispan, fransuz hamda ingliz tillarining keng tarqalishi hamda o'z so'zlashuv doirasining kengaytirishini bosqinchilik hamda mustamlakachilik siyosatiga bog'lash mumkin. Biroq 21-asr - axborot texnologiyalari asri. Bugungi dunyoda texnika barq sur'ati bilan o'sib bormoqda. Xo'sh til va kompyuterning o'zaro qanday bog'liqligi mavjud?

Tilning eng xavfli va og'riqli nuqtasi uning o'limidir. Vaqt har bir narsani iskanjasiga olganidek, har qanday tilga ham o'z tahdidini o'tkazmoqchi bo'ladi. Lekin bu tahdidlar to'riga tushib qolmaslik uchun tilga kompyuter va axborot texnologiyalari yordam qo'lini cho'zadi. Kompyuter shunday xotiraga egaki, unga o'rgatgan, joylagan ma'lumotlaringiz o'zingiz uni o'chirib tashlamaguningizcha har qancha vaqtga qadar, hatto abadiy o'z xotirasida saqlab turaveradi. Shuning uchun ham hozirgi kun tilshunos olimlari o'z tillarining o'lim xavfini yo'qotishi uchun texnologiyalardan unumli foydalanmoqda. Masalan, ingliz tilini har qanday tarmoq va sayt taniydi, ya'ni ma'lumot izlasangiz, ingliz tilida xohlagan faylingizni yoxud axborotingizni chiqarib bera oladi. Boshqa bir tomondan, kompyuter texnologiyalari va tilning o'zaro bog'liqligi shundaki, barq sur'ati bilan rivojlanib borayotgan mashina tarjimasi ko'pchilik lingvistlarning, hatto oddiy qatlam vakillarining ham diqqat markazida. Chunonchi, aksariyat insonlar mashina tarjimasining muvaffaqiyatlarini alohida ta'kidlasa, ayrimlar uning foydasidan ko'ra zararlari, ya'ni yechish amrimahol bo'lgan

muammolari talaygina, deb ta'kidlaydi. Xo'sh, aslida, mashina tarjimasining insoniyat uchun afzal jihatlari ko'proqmi yoki noafzal?

21-asr - texnologiyalar asri ekanligini inobatga olgan holda tilning, tarjimonlikning taraqqiyotini kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Binobarin, kompyuter lingvistikasining poydevori - tamal toshi mashina tarjimasini ham texnologiyalarga asoslanadi. Mashina tarjimasini (Machine Translation, MT) — bu bir tilni boshqasiga avtomatik tarzda tarjima qilish jarayonini anglatadi. Avvalo, mashina tarjimasini haqidagi loyiha 1836-1848-yillarda ilgari surilgan va bugunga qadar 150 yildan ko'proq vaqt mobaynida juda ko'p yutuqlarga erishdi va nafaqat tilshunoslar, balki oddiy aholi, ayniqsa til o'rganuvchilar uchun nihoyatda qimmatli manbalardan biriga aylandi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanganligi sababli biz mashina tarjimasini va uning ba'zi turlari haqida ma'lumotga egamiz hamda ularni kundalik sharoitda foydalanamiz. Jumladan, hozirgi kunda mashina tarjimasining quyidagi turlari hammaga ma'lum va mashhur: 1. Statik mashina tarjimasini (Rule-based Machine Translation, RBMT) - bu tizim tilga oid qoidalar va lug'atga asoslangan tarjimani amalga oshiradi. Qoidalar yordamida bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish mumkin. 2. Statistik mashina tarjimasini (Statistical Machine Translation, SMT) - bu usul katta hajmdagi matnlar va tarjimalar asosida statistik modellarni yaratadi va ma'lumotlarni taqqoslashga asoslanadi. 3. Neural mashina tarjimasini (Neural Machine Translation, NMT) - bu eng ilg'or usul bo'lib, neyron tarmoqlarni (sun'iy intellekt) qo'llaydi. U kontekstni yaxshiroq tushunish va yanada tabiiy tarjimalar yaratish imkonini beradi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, mashina tarjimasining eng katta qulayligi insonlarning qimmatbaho xazinasi - vaqtini tejaydi. Masalan, mashina tarjimasini ishlab chiqarilganidan oldin matnlar, kitoblar mutarjimlar, ya'ni tarjimonlar vositasida amalga oshirilgan va bu anchagina vaqtdan tashqari, ko'p mablag'ni ham talab qilgan. Negaki, tarjimonlar sarflagan vaqti va mehnati uchun haq olgan, albatta. Biroq hozirgi kunga kelib xohlagan tarjimon saytlaridan, xususan, Google translate saytidan bepul foydalanish mumkin hamda u orqali istagan matnimizni istalgan tilga juda katta tezlikda tarjima qila olamiz. Jumladan, mashina tarjimasini tarjimon hamda olimlarning ishini ancha osonlashtirdi, chunki tarjimonlar katta fayl, kitob, darslik, qo'llanmalarni mashina tarjimasini yordamida juda tez, oson, eng muhimi hech qanday mablag'larsiz tarjima qilmoqda va uning uslubiy, morfologik, leksik xatolarini tahlil qilib, vaqtdan yutish imkoniga ham ega. Tarozining ikkinchi pallasiga nazar tashlasak, mashina tarjimasining ham katta muammolarini ko'rishimiz mumkin. Avvalambor, mashina tarjimasini so'zlarni, tilning o'ziga xos uslublarini, morfologik, sintaktik xususiyatlarini mukammal va bexato tarjima qila olmaydi. Ayniqsa, badiiy uslubga oid tashbeh, istiora kabi san'atlarga asoslangan jummalarni xato va tushunarsiz tarjima qiladi.

Chunonchi, mashina tarjimasining eng nozik nuqtasi - frazeologizm, ya'ni iboralar. Iboralar - mustaqil turkumlarga mansub bittadan ortiq so'zdan tarkib topgan bir butun

semantik hamda grammatik birlik hisoblanadi. Ibora lug'aviy ma'no anglatish uchun xizmat qiladi.¹ Iboralarni, idiomalarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qiladi va bu tarjima foydalanish uchun yaroqsiz. Misol uchun, har qanday tarjimon sayti, hatto sun'iy intellektga asoslangan Chat GPT ham "when the pig fly" iborasini "cho'chqa uchganda" deya ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishi ayon. Vaholanki, bu iboraning ma'nosi "hech qachon sodir bo'lmaydigan voqea-hodisa"ni bildiradi. Bundan tashqari, polisemiya - ko'p ma'nolilik ham mashina tarjimasining nuqsonlaridan biri. Ingliz tilida mavjud bo'lmagan, ammo o'zbek tilida keng qo'llaniladigan "tuya hammomni orzu qilibdi" ko'chma ma'nodagi jumlaning "the camel dreamed of a bath" deya qilingan tarjimini olishimiz mumkin. Agar inglizlar bu jumlaning o'qisa, asl ma'nosini anglamaydi va nima demoqchi ekanligimiz ular uchun qorong'u bo'lib qolaveradi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday muammoni ham yechish mumkin. Mashina tarjimasini ham salbiy tomonlari tufayli qoralash noto'g'ri, shunchaki bu muammolarni hal etish filolog olimlar zimmasidagi vazifa. Ular tilda mavjud iboralarning ekvivalentini boshqa tildagi bilan tenglashtirib, korpus tayyorlasa, mashina tarjima uchun nur ustiga a'lo nur. Chunki tarjimon saytlarning bari lug'at va baza bilan ishlaydi. Umuman olganda, mashina tarjimasining noqulayliklarini deb yaxshi jihatlariga ko'z yuma olmaymiz. Faqat olimlar harakatdan to'xtamasa, bas. Zero, har qanday muvaffaqiyatning eng zo'r kaliti - bu mehnatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Lingvistik ta'limotlar tarixi". Tanlangan asarlar. 2- jild. Abdulhamid Nurmonov. "Sam DU" nashriyoti. Samarqand. 1990.
2. "Practical English usage". Martin Hewings. Oxford University Press. UK. Oxford. 1981.
3. "Essential Grammar in Use". Raymond Murphy. Cambridge University Press. UK. 2015.

¹ "Lingvistik ta'limotlar tarixi". Tanlangan asarlar. 2- jild. Abdulhamid Nurmonov. "Sam DU" nashriyoti. Samarqand. 1990. 303 – bet.